


The logo for the Institute for Macroeconomic and Regional Studies (IMRS) is located in the top left corner. It consists of the letters 'IMRS' in a bold, white, sans-serif font, set against a red rectangular background.

Institute for Macroeconomic  
and Regional Studies

# MARG'ILON SHAHRINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI

TOSHKENT, 2023-YIL DEKABR

# Mundarija



# Kirish

- Mazkur konsepsiya Marg'ilon shahrini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini o'z ichiga olib, shaharni rivojlantirish strategiyasi, bosh reja va master rejalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.
- Konsepsiyani ishlab chiqishda shaharning rivojlanish tendensiyalari, xususan, xizmatlar sohasining rivojlanishi, turizm salohiyati, uy-joy qurilishi va ekologik jihatdan muammolarga e'tibor qaratilgan. Tahlillar natijasida shaharning raqobat ustunliklari aniqlangan va rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.
- Konsepsiyada shaharni xizmatlar sohasida yetakchi hudud, hunarmandchilik va turizm markaziga aylantirish masalalari ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab olindi.



# Konsepsiyani amalga oshirish mexanizmi

## 1-bosqich

### Diagnostika

- Tabiiy-geografik sharoit tahlili
- Iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari
- Ishlab chiqarish infratuzilmasi holati



## 2-bosqich

### Rejalashtirish

- Zaxira imkoniyatlarni aniqlash
- Intervyu va so'rovlar o'tkazish
- Chora-tadbirlar ishlab chiqish
- Fikr va mulohazalar olish



### Zaxira imkoniyatlarni aniqlash

## 3-bosqich

### Amalga oshirish

- Mas'ullarni tayinlash
- Muddatlarni belgilash
- Moliyalashtirish manbalarini aniqlash

### Chora-tadbirlar ishlab chiqish

## 4-bosqich

### Monitoring

- Reja-grafikka muvofiqlik
- Byudjetning ishlatilishi
- Mas'ullar ishtiroki
- Baholash
- Fikr va mulohazalar olish

### Geografik joylashuv

- Shahar viloyatning ma'muriy markaziga yaqin joylashgan (~12 km);
- Farg 'ona shahriga borish uchun Marg'ilondan o'tiladi.



- Shaharda yo'l bo'yi xizmatlarini rivojlantirish imkoniyati yuqori



### Iqtisodiyot tarmoqlari

- Shaharga 2022-yilda "Jahon ipak va hunarmandlar shahri" maqomi berilgan;
- Shaharda savdo xizmatlari rivojlangan bo'lib, jami xizmatlarning 38% ni tashkil etadi



- Shahar hunarmandlari mahsulotlarini targ'ib qilish orqali savdo hajmi va turistlar sonini yanada oshirish mumkin;
- Xarid maqsadida shahar bozorlariga keluvchi qo'shni hududlar aholisini kengroq jalb qilish imkoniyati yuqori



### Infratuzilma imkoniyatlari

- Shaharda viloyatning asosiy temir yo'l stansiyasi joylashgan



- Farg'ona shahriga poyezdda keluvchi sayyohlar shaharda temir yo'l bekati yo'qligi sababli Marg'ilon bekatida tushib qoladilar



Intervyu va so'rovlar (aholi va tadbirkorlar bilan)



Yo'l bo'yi avtomatlashtirilgan savdo kiosklari, transport vositalari ijara xizmatlari, mahalliy mahsulotlar bozori va boshqalar



Hunarmandchilik yo'nalishida raqamli platforma yaratish va bu orqali boshqa hududlardan ham buyurtmalar qabul qilishni yo'lga qo'yish



Mahalliy milliy madaniyatni aks ettiruvchi yangi zamonaviy bozor komplekslari tashkil etish



Turistik xizmatlar turlarini kengaytirish orqali turizmini iqtisodiyotning drayver sohasiga aylantirish.



Tegishli tashkilotlardan fikrlar (fibek) olish




# Shahar haqida umumiy ma'lumot

➤ Marg'ilon to'g'risidagi dastlabki yozma ma'lumotlar **X asr**ga taalluqli. O'sha davrlarda shahar "Marg'inon" deb atalgan va keyinchalik har ikki nomi ham ishlatilib kelingan.

➤ Shahar buyuk ipak yo'lida joylashgan. Marg'ilon aholisi qadimdan **atlas to'qish** bilan shug'ullanib kelgan va shu tariqa uni jahonga mashhur qilgan.

➤ Marg'ilonda hunarmandchilik, ayniqsa, **do'ppido'zlik, tandırchilik, misgarlik** rivojlangan.

➤ Shaharda **buyuk faqih** sifatida nom qozongan Burhoniddin Marg'inoniy yashab ijod qilgan.






# Sanoat tarmog'i

## Farg'ona viloyati shaharlaridan farqli ravishda Marg'ilon sanoatida kichik biznes yetakchilik qiladi


So'nggi 5 yillikda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortishi avvalgi 5 yillikka nisbatan 1,6 barobar ko'p bo'ldi

Marg'ilon shahrida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi, mlrd.so'm (2022-yil narxlarida)




Marg'ilon sanoat tarmog'i natijalari bo'yicha Farg'ona viloyatida Uchko'prik tumani, Farg'ona va Qo'qon shaharlaridan keyingi yetakchi hudud

Hududlar sanoatining Farg'ona viloyatidagi ulushi, %



Marg'ilon shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni, birlik

Marg'ilon shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni, birlik





# Ta'lim xizmatlari

## Marg'ilonda xotin-qizlarni oliy ta'lim va rasmiy mehnat faoliyatiga jalb etishning sustligi ko'plab ko'rsatkichlarga ta'sir qilmoqda

### Marg'ilon bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi bo'yicha viloyatda so'nggi o'rinlarda. Aksariyat ayollar uyda farzand tarbiyasi bilan band

Farg'ona viloyati shaharlarida 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi, **ming nafar**




Farg'ona Qo'qon Quvasoy Marg'ilon

□ - maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalar

### Shahar umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi oliy ma'lumotli o'qituvchilar ulushi bo'yicha ham quyi o'rinlardan joy olgan

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida oliy ma'lumotli o'qituvchilar ulushi, %




Farg'ona viloyati

Marg'ilon shahri

### Shahar maktablarida o'quvchi o'rni yetishmovchiligi, nodavlat umumta'lim tashkilotlarining viloyatning boshqa shaharlariga nisbatan kamligi kuzatiladi

Umumiy o'rta ta'limning (UT) asosiy ko'rsatkichlari





Hunarmandchilik yoʻnalishida raqamli platforma yaratish va bu orqali boshqa hududlardan ham buyurtmalar qabul qilishni yoʻlga qoʻyish



Fargʻona shahri salohiyati hisobiga savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlarini iqtisodiyotning drayveriga aylantirish



Yoʻl boʻyi avtomatlashtirilgan savdo kiosklari, transport vositalari ijara xizmatlari, mahalliy mahsulotlar bozori va boshqalar



Margʻilon “Shirmoy non”i brendini yaratish va A373 avtomobil yoʻlining Qoʻqon-Shahrixon qismida “Shirmoy non” savdo nuqtalari tashkil etish



Nodavlat taʼlim xizmatlarini rivojlantirish, xotin-qizlarning oliy taʼlimda ishtirokini oshirish

## Margʻilon “Yodgorlik” ipakchilik fabrikasi yoki “qadimgi anʼanalar orolchasi”ga ega shahar



Fabrikada yoʻlga qoʻyilgan “Ustoz-shogird” anʼanalari natijasida malakali shogirdlar tayyorlanmoqda



Anʼanaviy usulda qoʻl dastgohlarida toʻqilgan mahsulotlar xorijda xaridorgir



Korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlarning asosiy qismi Xitoyga eksport qilinadi

 **Silk Road**

Buyuk ipak yoʻli shahar hududidan oʻtgan savdo-sotiqning rivojlanishiga asos boʻlgan

**1924-yil**

“Yodgorlik” ipakchilik fabrikasi shaharda hunarmandchilik kooperatsiyasi shaklida tashkil etilgan

**1972-yil**

Mazkur kooperatsiya negizida “Yodgorlik” ipakchilik fabrikasi qayta tashkil etilgan

**2000-yil**

Korxonada xususiy lashtirilgan va “Yodgorlik” MCHJga aylantirilgan

 **BRITISH COUNCIL**  
 **giz** Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yoʻlga qoʻyilgan

### Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar



2015-yildan buyon “Atlas bayrami” xalqaro an’anaviy to’qimachilik festivali bo’lib o’tadi



2018-yildan buyon “Buyuk ipak yo’li” xalqaro folklor musiqa festivali bo’lib o’tadi



2022-yilda “Jahon ipak va hunarmandlar shahri” maqomi berildi



turizm va madaniy meros obyektlari soni



Turistik xizmatlar turlarini kengaytirish orqali turizmni iqtisodiyotning **drayver sohasiga** aylantirish. Bunda Yodgorlik fabrikasi va Hunarmandchilik markazi salohiyatini keng targ’ib qilish



Yodgorlik fabrikasining **VR dizaynini** ishlab chiqish



Turpaketlarga mahallalarda joylashgan kichik xalq hunarmandchiligi **ustaxonalariga sayohatlarni** kiritish




Musulmon mamlakatlar o’rtasida shaharning ziyorat turizmi salohiyatini **targ’ib qilish**

# Uy-joy qurilishi

## So'nggi yillarda uy-joy qurilishi jadallashgan, biroq shahar yon atrofga kengayib bormoqda


So'nggi 5 yillikda uy-joy fondi maydonining ortishi oldingisiga nisbatan qariyb 5 barobarga ko'p bo'ldi

Marg'ilon shahrida uy-joy fondining ortishi, 1000 kv.m.



Marg'ilon shahrida jami 321 ta ko'p qavatli uylardan 181 tasi 4 qavatli




Marg'ilon shahrida ko'p kvartirali uylarning qavatlar soni



Hudud aholisini zarur infratuzilmaga ega qulay uy-joylar bilan taminlashda quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish talab etiladi

- 1 shaharning bosh rejasini yangilash:
  - bosh rejani ishlab chiqishda xususiy sektor va xorijiy ekspertlar xizmatidan foydalanish;
  - 2024-yildan boshlab shahar hududini qo'shni tumanlar hududi evaziga kengaytirishga barham berish.
- 2 shaharni bo'yiga o'stirish tamoyillari asosida rivojlantirish:
  - aholining yosh guruhlari bo'yicha prognozi asosida uy-joylar joylashgan hududlarda ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish;
  - zilzilabardoshlik tamoyillari asosida 9 va undan yuqori qavatli uylarni qurishni rag'batlantirish.

2022-yilda shahar hududi Qo'shtepa, Farg'ona va Toshloq tumanlarining yer maydonlari evaziga 1 119,49 gektarga kengaytirildi. Hozirda Qo'shtepa tumanidan qo'shilgan aholi punktlari va Marg'ilon shahri orasida maydoni 70 gektarni tashkil etuvchi qattiq maishiy chiqindilar poligoni mavjud. Yangi qo'shilgan hududni shahar markazi bilan bog'lovchi yo'l poligon yaqinidan o'tadi.



Atrof-muhit va shaharning ekologik holatini yaxshilash quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

1-bosqich

### REJA-GRAFIK

Shaharni ekologik barqarorlashtirish chora-tadbirlar ishlab chiqish

2-bosqich

### SAMARALI BOSHQARUV

shahar mahallalari kesimida obodonlashtirish rejalari asosida samarali boshqaruv amaliyotlaridan foydalanishni joriy etish

3-bosqich

### XUSUSIY SEKTOR

kommunal xizmatlar, obodonlashtirish va infratuzilma obyektlarini saqlash bilan bog'liq faoliyatlarga xususiy sektorni jalb etish

4-bosqich

### JAMOATCHILIK NAZORATI

reja-grafik ijrosi yuzasidan jamoatchilik nazoratining samarali mexanizmini ishlab chiqish



---

# Shahar hokimligi faoliyati samaradorligini oshirish

# Shahar hokimligi faoliyati samaradorligini oshirish

## Shahar hokimligining bugungi kundagi holati

5

Shahar hokimi  
o'rinbosarlari  
soni

1

Birinchi o'rinbosar  
kotibiyatidagi  
mutaxassislar soni

- 1 Hokimlik boshqaruv apparatini hokim va uning moliya-iqtisodiyot, qurilish va kommunikatsiyalar, oila va xotin-qizlar, yoshlar siyosati va ijtimoiy rivojlantirish, investitsiyalar va tashqi savdo masalalari bo'yicha o'rinbosarlari tashkil etadi.
- 2 Respublikaning tuman (shahar) hokimliklarida **topshiriqlarning** qariyb 70% 3 ta (birinchi o'rinbosar, qurilish masalalari va yoshlar ishlari bo'yicha) o'rinbosar, **murojaatlarning** yarmidan ko'pi 2 ta (birinchi o'rinbosar va qurilish masalalari bo'yicha) o'rinbosar tomonidan hal etilmoqda.\*
- 3 Bundan tashqari hokim o'rinbosarlarining vazifalari bir-birini takrorlashi tizimda muammo va tushunmovchiliklarga sabab bo'lmoqda. O'z navbatida boshqaruvdagi ushbu holat **Davlat byudjetiga** ortiqcha sarf-xarajatlarni keltirib chiqaradi.

\* MHTI tomonidan respublikaning 21 ta tuman va shaharlaridan jami 112 ta hokim o'rinbosarlari orasida o'tkazilgan so'rov natijalari.



## Kelgusida amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar



Vazirlik va idoralarning shahardagi bo'limlarini shahar hokimligi boshqaruviga o'tkazish orqali hokimiyatning xodimlar bilan ta'minlanishini mustahkamlash (180-200 nafar).



Shahar hokimining o'rinbosarlari sonini 3 ta etib belgilash. Bunda, 1) Moliya-iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha hokimning birinchi o'rinbosari 2) Qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish 3) Ijtimoiy masalalar bo'yicha hokim o'rinbosarlari.



Doimiy (takroriy) tusga ega bo'lgan funksiyalarni tegishli bo'limlardan birida qoldirish va xodimlar sonini optimallashtirish.



Hokimlik faoliyati samaradorligini KPI asosida baholashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish.



Institute for Macroeconomic  
and Regional Studies

 [info@imrs.uz](mailto:info@imrs.uz)

 +998 55 520 00 17

 [www.imrs.uz](http://www.imrs.uz)

 Toshkent shahri, Xadra  
mavzesi, 33-uy, 100011